

VEB SAYTDA SUN'YI INTELLEKTNING AFZALLIKLARI

Shaydulla Abdusalomovich Mengliyev

Termiz davlat universiteti, dotsent. , O'zbekiston

Jurabek Rasulovich Buranov

Termiz davlat universiteti magistri. O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada masofaviy ta'limning mustaqil ta'lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlari ko'rsatilib berilgan. Masofaviy ta'lim jarayoni o'qitish samaradorligi rag'batlantirish masalalari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, elektron qo'llanma, sayt.

Kirish

Butun dunyoda sun'iy intellekti yaratish texnologiyalari keng ko'lamda rivojlanmoqda. Xususan, mamlakatimizda sun'iy intellekt tizimlari va uning inson hayotida tutgan o'rni kun sayn kengayib bormoqda. Hozirgi kunda juda ko'p rivojlangan davlatlarda sun'iy intellekt sohasini takomillashtirishga alohida urg'u berilmoqda. Globallashuv jarayonida ko'p axborotlar elektron tarzda qabul qilinmoqda, lekin kata hajmdagi axborotlarni tahlil qilishda inson idroki ojizlik qiladi. Shuning uchun ham veb saytlarda sun'iy intellekt qo'llanilmoqda. Bunga misol tariqasida biz endi veb saytlarda axborotlarni qidirish, xarid qilish va boshqa jarayonlarni ovozli tarzda amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi[8-11].

Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev qator vazifalarni belgilab berdi. Bu vazifalar qatorida "Raqamli O'zbekiston — 2030" Strategiyasiga muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini mamlakatimizda jadal joriy etish va ularni keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlash hamda ta'limning moddiy-texnik bazasini yangi o'quv adabiyotlari, zamonaviy jihozlar va jumladan, kompyuter texnikasi bilan ta'minlashni qayd etish mumkin.

Binobarin, shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2021-yil 17-fevraldagi PQ - 4996-son Qaroridagi quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

Sun'iy intellekti qo'llashning asosiy yo'nalishlari va tamoyillarini, shuningdek, yaqin va uzoq istiqbolda ushbu sohani kompleks shakllantirish uchun shart-sharoitlarni belgilovchi sun'iy intellekti rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishda yagona talablar, javobgarlik, xavfsizlik va shaffoflikni belgilovchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish;

aholi manfaatlari yo'lida davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlashda davlat organlarining samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish;

foydali texnologik yechimlarni ishlab chiqish bo'yicha fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va ularni keyinchalik tijoratlashtirishni rag'batlantiruvchi sun'iy intellekt sohasida innovatsion ishlanmalarning mahalliy ekotizimini yaratish;

sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llovchi dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilariga raqamli ma'lumotlardan foydalanish uchun sharoit yaratish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining tegishli ma'lumotlarini tezkor raqamlashtirishni ta'minlash;

sun'iy intellekt sohasidagi ilmiy ishlar va ishlanmalarning investitsion jozibadorligini shakllantirish, shu jumladan tovarlarning (ish va xizmatlarning) ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish;

mahalliy korxonalar va mutaxassislarining sun'iy intellekt sohasidagi axborot resurslari va bilimlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, shuningdek, zarur ta'lim muhitini rivojlantirish;

qo'shma xalqaro tadqiqot faoliyatini amalga oshirish, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, respublikamizning nufuzli reytinglar va indekslarda pozitsiyasini yaxshilash maqsadida sun'iy intellekt va uni qo'llash texnologiyalari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

Elektron hukumat sohasida elektron davlat va moliya xizmatlarini ko'rsatishda foydalanuvchilarni masofadan turib biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash;

sun'iy intellekt texnologiyalari asosida boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha innovatsion mahsulotlarni hamda ularning modellari, algoritmlari va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish;

sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha yetakchi xorijiy innovatsion va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish.

SHunga ko'ra, Respublikamizda ham zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari sohasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Fan va ta'limning barcha sohalariga infokommunikatsion texnologiyalarni keng miqyosda qo'llash, yuqori malakali dasturchi mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish, xalqaro axborot tizimlarini joriy etish, shu jumladan, internetni kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2019-yilning 19-mart kuni bo'lib o'tgan yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, yoshlarning kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risidagi videoselektorda respublika viloyatlarining barcha shahar va tumanlarida "Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari"ni tashkil etish belgilab berilgan. 2019 - yilning 21-noyabr kuni Toshkent shahridagi Inha universitetida "Bir million o'zbek dasturchilar" deb nomlangan loyiha ishga tushurildi. Yuqorida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qo'yilgan masalalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zamonaviy o'quv adabiyotlar bazasini yaratish talab etiladi. Bu boradagi ishlar Respublikamizda fan va ta'limni yanada rivojlantirish imkonini berdi[1-4].

Asosiy qism. **Masofaviy ta'lim** tizimida barcha fundamental bilimlar asosan an'anaviy bosma shaklda tayyorlangan o'quv adabiyotlar, ovozli variantlar va video ishlanmalar orqali olinadi. **Masofaviy ta'lim** esa mustaqil bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, yangi qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirib borishga mo'ljallangan bo'lib, ixtiyoriy fanlar bo'yicha saytlar yaratiladi [12-13].

Hozirgi zamon mutaxassisi qaysi sohada ishlamasin, uning oldida o'zining sohasiga tegishli hodisa va voqealarni bilib turishi bilan birga, bilim saviyasini ham doimiy ravishda oshirib borishini shu bilan birgalikda o'z bilimini internet tarmog'i orqali yosh avlodga yetkazib berishni davr talab etmoqda.

Bu quyidagilardan iborat:

1. Jamiyat va fanning global rivojlanishining o'sish darajasi;
2. Ilmiy, uslubiy va boshqa turdagi materiallarning chop etish suratining o'sishi va ilmiy izlanishlarning murakkablashib rivojlanib borishi.
3. Ma'lumki, dunyoda ilmiy izlanishlar bo'yicha axborotlar doim o'sib, ularni tahlil qilish jarayoni tobora murakkablashib bormoqda.

Hozirgi kompyuter asosidagi telekommunikasion aloqa orqali, ya'ni veb saytda an'anaviy o'qitish uslubidan foydalanib, yuqori saviyada o'quvchilarga bilim berish va har-xil ko'rinishdagi o'quv materiallarni va video ishlanmalarni etkazib berish imkoniyati mavjud.

Internetda sayt yaratish ijobiy axborotni tarqatishdagi vaqtni tejaydi va moliyaviy to'siqlarni yo'qotadi. Ta'lim olish tizimining samaradorligi oshadi va o'qitish tezlashadi. Jumladan, COVID 19 pandemiya vaqtida masofaviy o'qish jadal rivojlandi va o'z isbotini topdi.

Internetda axborot dunyosiga sayohat qilishda "davlat chegaralari" degan tushuncha yo'q. Salbiy axborotlarga "eshikni yopsang derazadan kirib kelaveradi", salbiy axborotlarni chegaralab bo'lmaydi. Hozir internetda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Ommaviy madaniyatning eng xunuk illatlari, olg'a surgan g'arazli g'oyalaridan biri bu, ko'ngilxushlik g'oyasidir. Ko'ngilxushlik g'oyasi deganda, insonning turmush tashvishlaridan bir oz bo'lsa-da chalg'ish, o'zining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tushunish ham mumkin, agar buni xolis, samimiy izohlasak. Har qanday sog'lom ma'naviyatli insonlar o'z hayotining har bir daqiqasidan oqilona foydalangani holda, o'zi va boshqalarga foyda keltiradigan fa'oliyat bilan shug'ullanishga intiladi. Sof niyatda, ezgu mashg'ulotlar bilan o'zining bo'sh vaqtini fayzli, o'z talant, qobiliyatidan unumli foydalanishga harakat qiladilar. Ammo biz ushbu mavzuda tilga olayotgan ko'ngilxushlik g'oyasi tamomila boshqa, insonning insonligiga zid, ma'naviy olamini tubanlikning eng chuqur jarliklari sari yetaklashga qaratilgan, aqlsiz ko'ngilning tuban mayllarini qondirishga intilgani bilan xarakterlanadi. Bugungi "ommaviy madaniyat", buzg'unchi kuchlar tomonidan og'iz ko'pirtirib jar solinayotgan ko'ngilxushlik g'oyasi insonning hayot lazzalaridan xohlagan vaqt, istagan yerda va istagancha lazzatlanish, huzur qilish, bu yo'lda hech narsadan qaytmaslikni targ'ib qilish orqali maishatga izn beradi. Oqibatda G'arbni ma'naviy tubanlik sari undab, jar yoqasiga etaklab kelgan ko'ngilxushlik g'oyasi bugun O'rta Osiyoga ham ma'naviy tahdid bo'lib turibdi [5].

Masofaviy ta'lim saytiga kiritilgan har bir ma'lumot markaziy manbadan kirishga imkon beradi. Qidiruv tizimlaridan bir nechta so'rovlarni bajarishimiz va kerakli ma'lumotlarni topishimiz mumkin, agar shu ma'lumot saytda mavjud bo'lsa, qidiruv tizimlari kalit so'zlar

yordamida kerakli ma'lumotni topib beradi, aynan kerakli bo'lgan manba oz yoki umuman bo'lmasligi ham mumkin. Qidiruv tizimlari daromadni saytlar va reklamalardan topadi. Qidiruv tizimlari tushgan daromadni fanga sarflashga harakat qiladi, lekin davlat tili nuqtayi nazaridan bu tabaqalashtirilgan. Bu esa hamma foydalanuvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratilmaganligidan ayrim cheklovlar qo'yadi. Agar shu zaylda ish tutiladigan bo'lsa, kelajakda shu davlat tilida qidiruv tizimlari daromadi kamayib boradi.

Internetda tartibga solingan va tartibga solinmagan axborotlar oqimi ko'payib bormoqda. Tartibga solingan axborotlar oqimiga veb saytlar kiradi. Tartibga solinmagan axborotlar oqimi esa ijtimoiy tarmoqlar kiradi. Shu bilan birgalikda, asoslangan va asoslanmagan axborotlar mavjud. Asoslanmagan axborotlar oqimi ijtimoiy tarmoqlarni qamrab olgan. Internetda ko'pchilik foydalanuvchilar bozorida hali ham ta'limda foydalanuvchilar kam, ammo ko'ngilochar foydalanuvchilar hukmronlik qilmoqda.

Bugungi kunda internetda salbiy axborotlar ko'lami kengayib bormoqda, yosh avlodni axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida, ularning hayot yo'llarini to'g'ri yo'lga boshlaydigan va jamiyat talablariga javob beradigan axborotga to'la bo'lgan veb saytlar ko'lamin kengaytirishimiz maqsadga muvofiqdir[14].

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilarni hisobga olib mamlakatimizda barkamol avlodni komil shaxs sifatida shakllantirishda axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida quyidagilarni tavsiya etish mumkin[14]:

Birinchidan, ijobiy axborotga to'la bo'lgan veb saytlarni ko'paytirish uchun har chorakda o'qituvchilar va talabalarni rag'batlantirish dasturini ishlab chiqish (o'qituvchi va talaba veb sayti).

Ikkinchidan, har bir soha nominatsiyalarini foydalanuvchilarning quyi, o'rta va yuqori pog'onalarida ishlab chiqishni amalga oshirish muhimdir.

Uchinchidan, interaktiv xizmatlar ko'lamin kengaytirish va www.uz saytidan ro'yxatdan o'tkazish, foydalanuvchilar reytingining nazoratini va ko'rishlar sonini hisobga olish maqsadga muvofiqdir (shu sayt reytingi orqali baholash amalga oshiriladi).

To'rtinchidan, mobil aloqa asosida global tarmoqdan ta'lim oluvchilarning ko'lami kengayganligini hisobga olib, veb saytni mobil aloqa vositalariga mosligi va yuklanish (tezlikni) darajasini hisobga olish.

Beshinchidan, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida turli xil mafkuraviy tahdidlarning oldini olish zarur bo'lib, buning uchun ularning dunyoqarashida zamonaviy axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish lozimdir.

Oltinchidan, taraqqiyotning talabidan kelib chiqib, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga turtki bo'ladigan farmon va qarorlarni takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, XXI asr fan - texnika asrida o'sib kelayotgan yosh avlodni voyaga etkazishda oilada, maktabda, kasb-hunar kolleji va akademik litseyilarida hamda oliy o'quv yurtlarida ularga chuqur bilim berish bilan birga odob-axloq qoidalarini ham birga singdirib borish bugungi kunda zamon talabi hisoblanadi. Buning uchun mamlakatimizda shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, buni amalga oshirish yoshlarimiz dunyoqarashining qanchalik shakllanganligi bilan bog'liqdir[6-7].

REFERENCES

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq, Toshkent, 2016. 56-b.
2. Normurodov, C. B., Mengliev, S. A., & Mengliev, I. A. (2018). Tashkent.: Problemy v vychislitel'noj i prikladnoj matematiki.
3. Normurodov, C. B., Mengliev, S. A., & Mengliev, I. A. (2018). Issledovanie zavisimosti koeficienta soprotivlenija ot chislo Rejnoldsa v neszhimaemyh vjazkih zhidkostjah.(p. 60). *Tashkent.: Problemy v vychislitel'noj i prikladnoj matematiki*.
4. Нармуратов, Ч. Б., Менглиев, Ш. А., & Гуломкодилов, К. А. (2017). Математические модели проблемы гидродинамической устойчивости для однофазных потоков. *Проблемы вычислительной и прикладной математики*, (1), 41-46.
5. Нармуратов, Ч. Б., Менглиев, Ш. А., & Джураева, Н. Т. (2015). О методах решения проблемы гидродинамической устойчивости. *Проблемы вычислительной и прикладной математики*, (2), 58-64.
6. Нармуратов, Ч. Б., Менглиев, Ш. А., & Джураева, Н. Т. (2015). Математические модели проблемы гидродинамической устойчивости для двухфазных потоков. *Проблемы вычислительной и прикладной математики*, (2), 6-11.
7. Abdusalomovich, M. S. (2022). QORA KAMAR. SHUKUR XOLMIRZAYEV PYESASI ASOSIDA RADIOSPEKTAKL. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(18), 555-559.
8. Mengliev, S. A., & Kholturaev, K. F. LAMINARY FLUID FLOW IN A PIPE AND DIMENSIONAL NUMBER OF REYNOLDS. *AGRICULTURE, WATER MANAGEMENT, FORESTRY*.
9. Тойиров, А. Х., & Холтураев, Х. Ф. (2019). О проблеме гидродинамической устойчивости. *Вестник Национального технического университета Харьковский политехнический институт. Серия: Информатика и моделирование*, (13 (1338)), 28-39.
10. Нормуратов, Ч. Б., Менглиев, Ш. А., & Менглиев, И. А. (2018). Исследование зависимости коэффициента сопротивления от число Рейнольдса в несжимаемых вязких жидкостях. *Проблемы вычислительной и прикладной математики*, (5), 60-68.
11. Mamatkabilov, A. K. (2021). МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ КРИВОЛИНЕЙНОГО И ПРЯМОЛИНЕЙНОГО ДВИЖЕНИЯ АВТОМОБИЛЯ С УЧЕТОМ УПРУГОСТИ И ДЕФОРМИРУЕМОСТИ ШИН. *Theoretical & Applied Science*, (7), 179-185.
12. Mamatkabilov, A. K. (2020). MATHEMATICAL MODEL OF CURVILINE CREW MOTION ON CYLINDER WHEELS. *Theoretical & Applied Science*, (6), 287-292.
13. Choriev, K., Mamatkulov, S. I., & Mamatkabilov, A. (2004). Structure and thermodynamic properties of water in computer simulations: five-point model of liquid water. *Uzbekiston Fizika Zhurnali*, 6(1), 19-27.
14. Shukurov, A. A. (2020). LINGUISTIC INTERPRETATION OF POETIC TEXT. *Theoretical & Applied Science*, (4), 533-536.
15. Shukurov, A. A. (2022). Linguistic requirements of poetic text analysis. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(7), 172-177.
16. Axmatovich, S. A. (2021). Poetic Words in the Artistic Text. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 8, 99-102.

17. Шукуров, А. А. (2020). LINGUOPOETIC POTENTIAL OF SYNONYMS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(3), 361-366.
18. Djurayev, M. (2020). Headline is an important element of newspaper texts. *Theoretical & Applied Science*, (9 (89)), 421.
19. KARSHIYEVICH, D. M. (2020). Basic Principles of Creating Software System to Control and Correct Errors in Text. *management*, 7(11).
20. Джураев, М. К., & Каршиев, Д. М. (2018). НОВЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ РЕФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ. *Интернаука*, (48-1), 15-16.
21. Abdullayev, S. A. O. G. L., & Ahmadjonova, M. A. Q. (2021). MATLAB TIZIMIDA ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISH. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1576-1584.
22. Solayeva, M. N., Yusupov, M. R., Abdullayev, Sh. A. (2022). Ba'zi bir ajoyib limitlarga oid misollarni noanaviy uslublardan foydalanib yechish usullari. TABIIY-ILMIY FANLARNI O'QITISHDA FUNDAMENTAL VA AMALIY YONDASHUVLAR Respublika ilmiy anjuman materiallari to'plami, 1(1), 164-168.
23. Radjabov, B. S., Matmurodov, A. K., Abdullayev, S. A. (2021). Aniq emas integralni xisoblash usullari mavzusni o'qitishda klaster metodidan foydalanish. *Mug'allim*, 1(1), 118-122.
24. Abdullayev, S. A. (2021). Modern technologies of studying mathematics in the higher educational institution as a means of motivation of students' educational activity. International scientific-practical conference THE 2nd INTERNATIONAL CONFERENCE ON XXI CENTURY SKILLS IN LANGUAGE TEACHING AND LEARNING April 9, 2021, 1(1), 36-39
25. M. Gaipov, Q. Eshqorayev, Sh. Abdullayev. (2022). O'quvchilarni irratsional tenglamalarni yechishga o'rgatishning zamonaviy metodlari. *Mug'allim*, 3(1), 84-86.
26. Abdullayev, S. A., Aktamov, F., & Raupova, M. (2021). "FUNKSIYA XOSILASI" MAVZUSINI O'RGANISHDA KLASTER MODELIDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 3), 420-424.
27. Djurayev, M. (2020). HEADLINE IS AN IMPORTANT ELEMENT IN PUBLISHING MATERIALS. *Theoretical & Applied Science*, (1), 633-635.
28. Karshievich, D. M., & Murotalievich, Q. J. Application of Information and Communication Technologies in Cognitive Pedagogy. *JournalNX*, 327-329.